

O'QUVCHILARIDA MA'NAVİY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna
p.f.b.f.d(PhD), dotsent

Annotasiya: *yuqori sinf o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozisiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, medieresurslar va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *sinf, o'quvchi, bilim, ko'nikma, malaka, shaxs, kasb, ijtimoiy faoliyat, kompetensiya, ta'lim, pozisiya, tashabbuskorlik, medieresurs, axborot kommunikasiya, texnologiya, kasb-hunar, raqobat.*

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rmini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ta'linda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzlusizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar talimida (9+3) o'qitiladigan umuta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'yeqtlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayेrlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik - pedagogik jaraènda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jaraènining boshqa ishtiroychilari bilan ijobjiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik - pedagogik jaraènni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim èki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga Sifatlar Ijtimoiy kompetentlik Shaxsiy kompetentlik Texnologik kompetentlik Maxsus (èki kasbiy) kompetentlik Ektremal kompetentlik Psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion,

komunikativ va boshqa kompetentlik 6 muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatlari qo'llash;

c) informatsion kompetentlik - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli, o'rini, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy èendoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini nam

e) innovasion kompetentlik - pedagogik jaraènni takomillashtirish, ta'lism sifatini yaxshilash, tarbiya jaraènining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliètga muvaffaqiyatlari tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik - ta'lism jaraènining barcha ishtiropchilari, jumladan, talabalar bilan samimiyl muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

g) Shaxsiy kompetentlik - izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoèn qilish.

h) Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) Ektremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jaraèn ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

Ma'lumki, yoshlar, va umuman, kelajak avlodning ma'naviy kamolotini shakllantirish, ularning shaxs sifatida jamiyatdagi munosib o'rinni topishlariga xizmat qiluvchi milliy-ma'naviy asoslарimiz bu borada amalga oshirajak jami sa'yi harakatlarimizda didaktik qurol hisoblanadi. Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Imom Al Buxoriy, Imom Iso Termizi, Imom G'azzoliy, Hakim at-Termizi, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Kaykovus, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek singari ajdodlarimizning boy merosi bu borada amalda joriy etib kelingan tadbirlarning tub negizini o'zida ifoda etadi. Holbuki, ma'naviy tarbiya o'z xususiyatiga ko'ra, har bir millatning tarixiy, milliy-madaniy konsepsiyasini aks ettiradi. Shaxsning madaniy-tarixiy konsepsiyasining mohiyati L.S.Vыigotskiy tomonidan ilgari surilgan quyidagi fikrda o'z ifodasini topgan: «Zamonaviy (madaniyatlari) kishining xulqi faqat bolalik davridagi rivojlanishning natijasi bo'lib qolmay, balki tarixiy taraqqiyotning mahsuli hamdir. Insoniyat taraqqiyoti tarixiy jarayonda ijtimoiy, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar mazmunigina o'zgarib va rivojlanib qolmay, balki insonning o'zi ham, uning tabiatini ham o'zgardi va rivojlandi». Bugun globallashuv, iqtisodiy va siyosiy integrasiya ta'sirida dunyo tobora yaxlit va bir butun xarakter kasb etib bormoqda. Faqat kapital va tovarlar oqimi emas, hatto ularning koshifi insonning harakat doirasi ham kengaymoqda. Natijaa odamlar orasida xudbinlik, ma'suliyatsizlik, loqaydlik, jizzakilik keng yoyilmoqda. Endilikda odamlar orasida axloqsizlik, murosasizlik, toqatsizlik, ko'rinishlarini bartaraf qilish, jamiyatda odob-axloq, insonparvarlik, bag'rikenglik, tinchliksevarlik madaniyatini qaror toptirish, shuningdek, o'zaro hurmat, samimiy do'stlilikni targ'ib etish bugunning muhim vazifasiga aylanmoqda.

Hadislar va shariat inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotning asosi bo'lgan axloq - odobning barcha qirralarini o'z ichiga olgan. Hadislar ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlarning mukammal to'plamidir. Undagi ota-onaga, ilmga muhabbat, sabr-bardosh, shukronalikka da'vat, o'zaro mehr, inoqlik, mehmondo'stlik, yetimparvarlik, vafo va sadoqat, mehnatsevarlik va halol luqmani sharaflash, kamtarlik va kansuqumlik, samimiyat va rostgo'ylik, to'g'rilik va halollik, ota-onaga g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat, kishilarga yaxshilik qilish,

Savob ishlarga qo'l urish, insofli - diyonatli, vijdonli bo'lish, mehrshafqat, to'g'rilik, rostgo'ylik, sofdir bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish kabi xislatlarning birinchi o'ringa qo'yilishi insoniyat uchun bebahoh ma'naviy qadriyatlar silsilasini yaratib berdi. Shukronalik va sabr ham inson ma'naviyatining muhim jihatlardan biridir. Ma'naviy ne'matlar ko'zga bevosita ko'rimmaydi, ammo qalb ko'zi bilan ilg'ab olinadi. Inson, aql, xurriyat, tinchlik shular jumlasidandir. Yuqorida aytigan islom ma'naviyati ummonidan bir zarra, xolos. Ma'naviy-axloqiy kamolot masalalarida aytigan ba'zi hadislarda fikrimiz o'z tasdig'ini topadi: Hadisda beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligi qayd qilingan.

Shu ma'noda bugun mamlakatimizda ushbu soha uchun kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini takomillashtirish ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy, siyosiy va huquqiy jihatdan quyidagi omillar bilan uzviy bog'liq.

- Birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash;
- ikkinchidan, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish;
- uchinchidan, mamlakat istiqbolini o'z kelajagi bilan uyg'un ko'radigan, ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashadigan yoshlarni shakllantirish uchun imkoniyat yaratish;
- to'rtinchidan, mamlakatimizda yoshlarning ichki dunyosini rivojlantirish asosida diniy-dunyoviy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan munosabatlarni shakllantirish;
- beshinchidan, talaba-yoshlarda mamlakatimizdagi ma'naviy-axloqiy, diniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyatini anglab olishi, milliy g'oya tamoyillari asosida yashash tuyg'ularni shakllantirishi, yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bashina T.F., Ilin Ye.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. - CPb.: Piter, 2009.
2. Djurinskiy A.N. Iстория педагогики / Учебное пособие. - Moskva: GIS Vlados, 1999. - 430 s.
3. Ivanov R.I., Zufarova M.E. Umumiyy psixologiya / Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'naliishi talabalari uchun darslik. - Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyat nashrieti, 2008. - 480 b.
4. Maylonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika (kasbhunar kollejlari uchun darslik). Ikkinci nashri. - Toshkent: "O'qituvchi" NM ijodiy uyi, 2008. - 496 b.
5. <https://psihdocs.ru/kompetenciya-nima-degani.html>

6. Tuychieva, I. I. (2018). Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
7. Туйчиева, И. И. (2019). Вопросы обеспечения активизации мыслительной деятельности детей в процессе дошкольного образования. In *PSYCHO-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF A PERSONALITY AND SOCIAL INTERACTION* (pp. 22-25).
8. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.
9. Ibragimovna, T. I. (2021). LEGAL AND REGULATORY FUNDAMENTALS OF REFORM OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.
10. Tuychiyeva, I. I. (2017). Question of Using Linguo-cultural Material for Learning Native Tongue in Professional Colleges. *Eastern European Scientific Journal*, (4), 84-88.
11. Ibragimovna, T. I. (2023). Preparing Future Educators for the Formation of Life Skills in Students. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 170-173.
12. Байджанов, Б. Х. (2020). Таълим жараёнида илғор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизmlари. *Science and Education*, 1(2), 514-519.
13. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.
- Baydjanov, B. K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 352-363.
14. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In *Конференции*.
15. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In *Конференции*.
16. Baydjanov, B. (2021, March). COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS'VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY. In *Конференции*.
17. Khaitboevich, B. B. (2020). Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(10), 69-72.
18. Ismoilov, S. (2021). SPECIFIC FEATURES OF FORMATION OF FAMILY VALUES IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 693-696.
19. Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G'IL BOLALARNI OILAGA TAYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMIY ASOSLARI. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.
20. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI

SIFATIDA. *O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 1210-1215.

21. Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARING FAMILISTIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. *O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 874-879.

22. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 476-479.

23. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(2), 117-123.

24. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. *European journal of education and applied psychology*, (1), 3-6.

25. Tuychieva, I. I., & Ismailov, S. D. (2022). Formation Of Familistic Competence In Adolescent Boys. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2021-2024.